

## **QADRIYAT BESHIGI BO'LGAN XAVFSIZ MAHALLA YOXUD OILA VA TA'LIM**

**Abdushukurova Laylo Rahimjonovna**

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 1-Pediatriya va xalq tabobati fakulteti  
2-bosqich 212-guruh talabasi

Email: [layloabdushukurova44@gmail.com](mailto:layloabdushukurova44@gmail.com)

**Xoliqova Gullola Yoqub qizi**

Toshkent pediatriya tibbiyot institutining 2-Pediatriya ishi va tibbiy biologiya  
fakulteti 4-bosqich 409-guruh talabasi  
Email: [xoliqovagullola0529@gmail.com](mailto:xoliqovagullola0529@gmail.com)

**Annotatsiya:** Azal azaldan mahalla milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar shakllangan va yuzaga kelgan maskan hisoblangan. Bu maskanda ahillik va hamjihatlik, keksalarga hurmat-u yoshlarga izzat, muhtojlarga muruvvat ko'rsatish kabi ko'plab ibratli milliy va diniy qadriyatlar hukmron bo'lgan. Eng asosiy odob beshigi deb ham mahallani aytsak sira mubolag'a qilmagan bo'lamiz ammo bugungi kundagi mahallarga bo'lgan e'tibor kuchayaptimi yoki aksincha? Bugungi kunda e'tibor markazida turgan ushbu qadriyatlar maskani aslida qay ahvolga kelib qoldi. Ushbu maqolada shular haqida so'z yuritsak maqsadga muvofiq bo'lardi.

**Аннотация:** Махалла испокон веков считался местом, где формировались и зарождались национальные ценности, традиции и обычаи. В этом месте преобладали многие образцовые национальные и религиозные ценности, такие как согласие и солидарность, уважение к пожилым и честь к молодым, доброта к нуждающимся. Мы непреувеличим, если скажем, что махалла-это колыбель нравов, но растетли сегодня внимание к махалле или наоборот? Что стало с этим местом ценностей, которое сегодня находится в центре внимания. О них было бы уместно рассказать в этой статье.

**Аннотация:** С незапамятных времен микрорайон считался местом, где формировались и зарождались национальные ценности, традиции и обычаи. В этом месте преобладали многие образцовые национальные и религиозные ценности, такие как согласие и солидарность, уважение к пожилым и честь к молодым, доброта к нуждающимся. Не будет преувеличением сказать, что район – это колыбель нравов, но возрастает ли сегодня внимание к району или наоборот? Что стало с этим местом ценностей, которое сегодня находится в центре внимания. О них было бы уместно рассказать в этой статье.

**Kalit so‘zlar:** mahalla, insonparvarlik, hamjihatlik, ma’naviyat, ma’rifat, bunyodkorlik, urf-odatlar, qadriyatlar, jamiyat, millatparvar.

**Ключевые слова:** соседство, человечество, солидарность, духовность, просвещение, творчество, традиции, ценности, общество, националист.

**Key words:** neighborhood, humanity, solidarity, spirituality, enlightenment, creativity, traditions, values, society, nationalist.

Mahallada shakllangan urf-odatlar bilan hisoblashmaslik mumkin emas chunkiy mahalla bu katta bir jamiyatnig davlat bilan oilalarni birlashtruvchi makondir. Boshqacha aytganda, mahalla urf-odatlar orqali odamlarni boshqarib, ma’lum doirada harakat qilishiga zamin tayyorlardi. Bu, bir tomondan, aholi, ayniqsa yoshlarning xulq-atvori doimo mahalladoshlar nazoratida bo‘lishini ta’minlashi, o‘zaro munosabatda odob doirasidan chiqilmasligi, har bir ishda yelkadosh bo‘lishligi bilan ulkan ijobiy ahamiyatga ega edi. Mustaqillik yillarda esa davlat tomonidan mahallaga bo‘lgan e’tibor ancha kuchaydi. Mahallalar o‘zini-o‘zi boshqarish organiga aylandi, «xalq vijdoni», «demokratiya darsxonasi» deya e’tirof etilib, ularning faoliyatini tashkil etishga qaratilgan qonunlar, farmon-u qarorlar qabul qilindi.

Mahalla obodbo‘lsa yurt obod bo‘ladi. Mahallada o‘zgarish bo‘lsa butun jamiyat o‘zgaradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Mahalla-asrlar osha milliyurf-odat va an’analaramizni bezavol saqlab, xalqimiz uchun ezgulik va tarbiya beshigi, yaxshi qo‘sni chilik va hamjihatlik maskani bo‘lib kelmoqda. Biz

mahalla deganda, dunyoda kamdan-kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan uyg‘un bo‘lib yashashga o‘rgatib, bag‘rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o‘rtasidagi ishonchli ko‘prik vazifasini bajaradigan noyob tuzilmani tushunamiz”. Haqiqatdan ham, bugungi kunda jamiyatimiz uchun mahallaning o‘rnini kattadir. Yoshi kattalar yaxshi biladi: mahallaning har bir shaxsga, u kim va qanday lavozimda bo‘lishiga qaramasdan, ta’sir kuchi katta edi.

Bularning hammasi mahallalar funksiyasini, bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar mohiyatini o‘zgartirdi. Har bir yordamga muhtoj inson bormi, davlat arbobi bormi, oddiy xodimmi hamisha mahallaga yuzlangan va muammolarining osongina yechimini topa olgan. Ammo ba’zi bir qo‘shtirnoq ichidagi mahallalar borki, ular fuqarolarning gishonchini suiiste’mol qilib kelmoqda va qanchadan-qancha fuqarolarning haqqiga xiyonat qilishmoqda. Bunga aniq misol qilib “Temir daftar” shakllana boshlagan paytlarni olsak bo‘ladi. O’tgan davr mobaynida mahallada yashovchi fuqarolarning muhtoj qatlagini 12–15 % daftarga kiritish vazifasi topshirilgan edi.

Yig‘ilishlarda buning sababi shunday tushuntirilgan edi: «Yuqori minbarlarda mamlakatimiz aholisining ana shunchasini qashshoqlar tashkil etishi aytilmoqda, shu sababli «Temir daftarda» ham bu raqam o‘z aksini topishi kerak». Vaholangki, bundan xabar topgan ba’zi bir kimsalar davlat pullarini o‘zlashtirish maqsadida soxta hujjatlar tayyorlab kelgan pullarni o‘zlariniki qilib olishlari va haqiqiy yordamga muhtoj insonlar yana hech narsasiz qolishlari juda achinarli hol. Shunday vaziyatlarda mahalla qayerga qaraydi, nahotki adolat bo‘lmasa degan savollar bizni qiynaydi. Mahallaning ijtimoiy – tarbiyaviy funksiyasini saqlab qolish, yanada mustahkamlash va ibrat tarbiya maktabiga aylantirish qanday vazifalar ko‘ndalang turadi degan savol tug‘iladi. Mahalla eng avvalo o‘ziga xos mustahkam ijtimoiy birlikdir. Chunki mahalla ko‘z oldida hamma ijtimoiy, madaniy, tarbiyaviy jarayonlar sodir bo‘ladi. Har bir shaxs mahallada yashab turib, undan tashqarida bo‘la olmaydi. Har bir kishi yosh avlod mahalla ahlining oldida va muhokamada bo‘ladi. Mahalla o‘zaro ishonch, yordam va himoya munosabatlariga asoslanadi.

Alohibda ta’kidlash joizki, mahalla tizimi vakillarida o‘z majburiyatiga nisbatan xolislik bo‘lmash ekan, Prezidentimizning mahalla tizimi obro‘sini ko‘tarish,

xalqqa yana-da yaqinlashtirish bo'yicha amalga oshirayotgan barcha sa'y-harakatlari natija bermaydi. Bu esa, o'z navbatida, davlatning siyosatiga, islohotlar jadallashuviga, ijobiy natijadorlikka putur yetkazadi. Ishonch yo'qoladi. 2022-yil "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deb nomlanishini ham aynan mahallalarga berilayotgan e'tibor sifatida qabul qilish lozim. O'ziga xos nomlangan ushbu yilda amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar dasturdagi ishlarni bajarish har bir mahalla raisidan yuksak saviya, matonat, tashabbuskorlik, sabr-toqat talab qiladi.

Maqolaning avvalida mahalla azaldan an'analar maskani bo'lganligi uqtirilgan edi. Keyingi davrda uning funksiya va vazifalari sezilarli darajada o'zgardi. Bu ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan tizimga qanday ta'sir etganligini qisqacha ko'rib chiqdik. An'analar, urf-odatlar, qadriyatlarni saqlab qolish muhimligi hamda mahallalar nomlari "zamonaga mos" bo'lishiga intilish doim ham o'zini oqlamasligi haqida alohida maqolada fikr yuritiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. Karimova L. Mahalla – o'rnak o'rganish manzili. Obrazavanie I nauka v XXI veke. (2021, oktabr).
3. <https://lex.uz/> [sayti](#)
4. <http://saodat.zn.uz> sayti
5. <https://president.uz/uz>